

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

“TURIZM” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.48:378(575.1)

MARIFBAYEVA ZUXRA BAXTIYOR QIZI

**O‘ZBEKISTONDA TA‘LIM TURIZMI ISTIQBOLLARI VA
TALABALARNING XORIJDA TA‘LIM OLIH SABABLARI**

71010401-“Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)” mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:


I.f.d, professor I.Ivatov

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

11 -sonli bayonnoma " 24 " aprel 2024 y.

Kafedra mudiri: Eshtayev.A




imzo

10.05.2024

sana

Ilmiy rahbar: Ivatov.I




imzo

10.05.2024

sana

Talaba: Marifbayeva.Z



imzo

10.05.2024

sana

dissertatsiya 2023-yil " 1 " dekabr

№ 1604 T raqami bilan ro'yxatga olingan.

Annotatsiya

Dunyo bo'yicha eng ko'p xalqaro talabalarni jalb qiluvchi AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya va Yaponiya mamlakatlari xalqaro turizmida sayyohlar soni jihatidan o'z o'rnini doimiy ravishda mustahkam ushlab turadi va xalqaro talabalar sayohatining 60 foizini tashkil etadi. Ushbu va boshqa ko'plab mamlakatlar ta'lim turizmini rivojlantirish, reyting va ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida dunyoning turli nuqtalaridan talaba bo'lish istagidagi yoshlarni va turli yoshdagi o'z kasbining ustasi bo'lgan professional kadrlarni jalb qilishga harakat qiladi. Yuqorida nomi tilga olingan davlatlar tashrif buyurgan talaba va kadrlarga ta'limdan kengroq imkoniyatlarni taqdim eta oladi. Ular o'z sohasida bilim egallashdan tashqari, o'zi bo'lib turgan davlatning mavqei, tarixi, arxitekturasi, madaniyati, dini va boshqa ko'plab jihatlarini o'rganish imkoniga bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda, O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish hamda yoshlarimizning chet elga ta'lim olish uchun ketishiga sababchi bo'luvchi omillarni cuqur o'rganish zamon talabi bo'lib bormoqda.

Shu jihatdan ham, mavzuning dolzarb ekanligini hisobga olgan holda, ushbu mavzu doirasida tadqiqot va tahlillarni olib bordik.

Tadqiqotimiz mavzusining maqsadi va vazifalarini yoritib berish jarayonida xorijiy va mahalliy manbalardan hamda ilmiy tadqiqotlardan keng foydalangan holda mavzuni yoritdik.

Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati keng bo'lib, O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirishdagi muammolarni va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: *turizm, turist, ichki turizm, infratuzilma, innovatsiya, resurs, klaster, davlat hususiy sherikligi, loyiha, hududiy rejalashtirish, ta'lim turizmi, xorijda ta'lim, oliy ta'lim.*

ABSTRACT

The USA, Great Britain, Germany, France, Australia, and Japan, which attract the most international students in the world, constantly hold their place in international tourism in terms of the number of tourists and make up 60 percent of international student travel. These and many other countries are trying to attract young people who want to become students from different parts of the world and professional personnel who are masters of their profession in order to develop educational tourism and increase their rating and indicators. The above-mentioned countries can provide the visiting students and staff with a wide range of educational opportunities. In addition to acquiring knowledge in their field, they will have the opportunity to learn about the status, history, architecture, culture, religion and many other aspects of the country they stay in. Taking this into account, the development of educational tourism in Uzbekistan and the in-depth study of the factors that cause our young people to go abroad for education are becoming the need of the hour.

In this regard, considering the relevance of the topic, we conducted research and analysis within this topic.

In the process of elucidating the goals and objectives of our research topic, we covered the topic using foreign and local sources and scientific research.

The scientific and practical importance of the subject is wide, scientifically based proposals and recommendations were developed on the problems and their solutions in the development of educational tourism in Uzbekistan.

Key words: *tourism, inbound tourism, educational tourism, planning, project, infrastructure, resource, innovation, study abroad, higher education.*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	2
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
KIRISH.....	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
Tadqiqotning obyekti va predmeti.....	11
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	11
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	14
1.1. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar sharxi.....	14
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	17
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	20
II BOB. METODOLOGIYA.....	25
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	25
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	26
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	27
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	28
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	30
3.1. O'zbekistonda turizm rivojlanishi holatining iqtisodiy tahlili.....	30
3.2. Ta'lim turizmiga oid ma'lumotlarning qiyosiy tahlili.....	35
3.3. Xorijda ta'lim olish sabablari va ularni O'zbekistonda joriy qilish	51
3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	50
XULOSA.....	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	57
ILOVALAR.....	61

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

“Turizm – bu ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o‘rinlari va kambag‘allikni qisqartirish degani. Shuning uchun har bir hududda bu sohaga jiddiy e‘tibor qaratib, ko‘proq sayyohlarni jalb etish kerak”.¹

Ta‘lim turizmi yangi yoki yaqinda fanga kirib kelgan tushuncha emas. U XVII-IXX asrlarda Britaniyada yoshlarning dunyo qarashi va bilimni kengaytirish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi kunda ham ta‘lim turizmi birgina shaxsga chet elda ta‘lim olish, yangi tillarni o‘rganish, madaniyatlar va xalqlar aro sayohat hamda tengsiz hayotiy tajribalarni taqdim etadi.

Yurtimizdagi ko‘plab olimlarning turizm sohasida olib borgan tadqiqotlari yetarlicha bo‘lsa-da, aynan ta‘lim turizmi istiqbollari, iqtisodiy jihatdan qudrati haqidagi ma‘lumotlar juda kam o‘rganilgan. Bundan tashqari, quyidagi ta‘lim turlari orqali xorijiy talabalarni jalb qilish bilan turizmning YaIM dagi ulushini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar eng kam ta‘lim maqsadi uchun kelgan, achinarlisi, 2012-yilda 3.6 ming va 2022-yilda 8.8 ming ko‘rsatkich bilan 10 yil davomida atigi 5.2 mingga ko‘paygan. Turizm iqtisodiy faoliyatning eng asosiy yo‘nalishi va jadallik bilan rivojlanib borishiga qaramay, tadqiqot obyekti sifatida juda ham murakkab va to‘liq o‘rganib bo‘linmagan soha hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan sabablar dissertatsiya mavzusining qanchalik dolzarb ekanligini ko‘rsatib beradi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Dissertatsiyaning asosiy maqsadi turizmning ajralmas, eng ko‘p valyuta olib kelishi mumkin bo‘lgan ta‘lim turizmi yo‘nalishining O‘zbekistonda oqsayotganligi sabablarini o‘rganish, uni rivojlantirishga qaratilgan taklif va

¹“Turizm sohasidagi ulkan imkoniyatlar va ulardan foydalanish bo‘yicha vazifalar ko‘rsatib o‘tildi.” Shaykati Mirziyoyev-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 19 Sept. 2022, president.uz/oz/lists/view/5552.